



2022- yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida jami **1634,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan **107,1 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.05.2021- yil	01.05.2022- yil	
Namangan viloyati	2404	2427	101,0
Mingbuloq	78	79	101,3
Kosonsoy	270	269	99,6
Namangan	142	124	87,3
Norin	134	136	101,5
Pop	104	125	120,2
To'raqo'rg'on	106	109	102,8
Uychi	213	237	111,3
Uchqo'rg'on	154	177	114,9
Chortoq	167	170	101,8
Chust	179	174	97,2
Yangiqo'rg'on	100	103	103,0
Namangan shahri	757	724	95,6
Shundan			
Davlatobod	192	203	105,7
Yangi namangan	-	162	

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **85,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,3 foizni tashkil etdi 2021- yilning mos davriga nisbatan **105,1** mlrd.ga ko‘paygan.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Namangan shahriga (hududdagi jami yirik qurilish ishlari hajmining **52,8 %**) ga to‘g‘ri keldi




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1158,0 mlrd. soʻmni tashkil etib 2021- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % (foiz) punktga koʻpayganini koʻrish mumkin.




Norasmiy sektor hissasiga toʻgʻri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,9 %** ni tashkil etib **390,7 mlrd. soʻm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **103,3 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **57,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **3,5** % ni va nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1577,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib jami qurilish ishlaridagi ulushi **96,5** % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**2022- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimidaqi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Namangan viloyati	1634,6	107,1	1207,5
Mingbuloq	48,0	166,9	33,0
Kosonsoy	150,4	102,0	118,7
Namangan	124,3	104,5	89,3
Norin	77,9	131,6	63,2
Pop	113,3	94,7	72,8
To‘raqo‘rg‘on	86,7	113,2	61,7
Uychi	149,3	127,2	102,6
Uchqo‘rg‘on	99,1	75,2	88,2
Chortoq	141,4	113,1	104,3
Chust	81,5	75,0	67,6
Yangiqo‘rg‘on	91,5	128,5	77,0
Namangan shahri	471,2	111,8	329,1
Shundan			
Davlatobod	109,9	99,3	73,2
Yangi namangan	109,5	125,5	65,8

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 59,0 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 5,1 % ulushni tashkil etdi.

ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 699,2 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 60,9 % ulushini tashkil etdi.

Norasmiy sektorlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 390,7 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 34,0 % ulushini tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 25,4 mlrd so'mni tashkil etib, Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 20,5 % ulushni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 98,3 mlrd so'mni tashkil etib, bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari umumiy hajmining 79,5 % ulushini tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 1,5 mlrd so'mni tashkil etib, Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 0,4 % ulushni tashkil etdi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 360,5 mlrd so'mni tashkil etib, Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 % ulushini tashkil etdi.

ulushi, % da



2022- yil
Yanvar-aprel
mlrd.so'm

2022- yil
Yanvar-aprel
%



2022- yil
Yanvar-aprel

Namangan viloyatida qurilish ishlari

10